

YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TARKIBIY TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

TDIU Turizm fakulteti talabasi

Karimova Sadoqat Sherali qizi

sadoqatkarimova4335@gmail.com

TDIU Turizm fakulteti talabasi

Farangiz Fayzullayeva

farangizfayzullayeva014@gmail.com

Kandaxarov Zafar Ishratovich

Independent Researcher of the Department

"Economic Theory" TSEU

zkandaxarov95@gmail.com

ORCID: 0009-0007-1863-0413

Annotasiya: *Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy transformatsiya jarayonlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti va uning ahamiyati o'rganiladi. O'zbekistonda iqtisodiyotning sifat darajasi, amalga oshirilayotgan islohotlar va erishilgan natijalar o'rganiladi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2025- yil 26- dekabrda oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi o'rganiladi hamda O'zbekiston-2030 strategiyasi tahlil qilinadi va O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy soha rivoji haqida so'z yuritiladi*

Abstract: *This article examines the economy of New Uzbekistan and its significance. It examines the quality of the economy in Uzbekistan the reforms being implemented and the results achieved are studied. The address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev to the Supreme Assembly and the people of Uzbekistan dated December 26, 2025 is studied, the strategy of Uzbekistan 2030 is analyzed and the development of the economic sector in the Republic of Uzbekistan is discussed.*

Абстрактный: *В данной статье рассматривается экономика Нового Узбекистана и её значение. Анализируются качество экономики Узбекистана, проводимые реформы и достигнутые результаты анализируется обращение президента республики Узбекистан Шавката Миромоновича Мирзиёева к Верховному собранию и народу Узбекистана от 26- декабря 2025 года рассматривается Стратегия Узбекистана -2030 и обсуждается экономического сектора в республике Узбекистан.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti, tarkibiy transformatsiya, iqtisodiy modernizatsiya, iqtisodiy diversifikatsiya, sanoatni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi islohotlari, xizmatlar sektori, institutsional islohotlar, raqamli iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, yashil iqtisodiyot, barqaror iqtisodiy o'sish, milliy iqtisodiyot, investitsion muhit, iqtisodiy*

liberallashtirish. Iqtisodiyot tushunchasi, iqtisodiy tahlil, bozor diversifikatsiyasi, Yangi O'zbekiston - 2030 strategiyasi.

Key words: *Concept of economy, economic analysis, market diversification, New Uzbekistan -2030 strategy.*

Ключевые слова: *Концепция экономики, экономический анализ, диверсификация рынка, стратегия Новый Узбекистан -2030.*

Kirish. Iqtisodiyot - bu ishlab chiqarish, tarqatish va savdo, shuningdek, tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish sohasini o'rganish hisoblanadi. Umuman olganda u tanqis resurslarni ishlab chiqarish, ishlatish va boshqarish bilan bog'liq amaliyotlar, nutqlar va moddiy ifodalarni ta'kidlaydigan ijtimoiy soha sifatida belgilanadi.[1]

Asosiy qism. Muayyan iqtisodiyot - bu asosiy omillar sifatida uning madaniyati, qadriyatlari, ta'limi, texnologik evolyutsiyasi, tarixi, ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzilishi, huquqiy tizimlari va tabiiy resurslarni o'z ichiga olgan jarayonlar to'plamidir. Bu omillar ma'no-mazmunni beradi va iqtisodiy sharoit va parametrlarini belgilaydi.[2]

Boshqacha qilib aytganda iqtisodiy soha- bu o'zaro bog'liq bo'lgan inson amaliyotlari va operatsiyalarning ijtimoiy sohasi bo'lib u bir nechta sohalar bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiyotni o'rganish taxminan makroiqtisodiyot va mikroiktisodiyotga bo'linadi. Bugungi kunda iqtisodiyotni o'rganuvchi ijtimoiy fanlar atrofida aylanadi ammo sotsiologiya, tarix, antropologiya va geografyani ham o'z ichiga olishi mumkin. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish, va iste'mol qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan inson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan amaliy sohalar biznes, muhandislik, hukumat va sog'liqni saqlash hisoblanadi.[3]

YIM hajmining o'sishi: 2024- yil yakuniga ko'ra O'zbekiston Yalpi ichki mahsulot hajmi 6,5 % ga o'sgan va jami 1,45 kvadrillion so'mni tashkil etadi va bu 115 mlrd dollar hisoblanadi. Sohalar kesimida: Eng yuqori o'sish qurilish (10,8%) ga va xizmatlar (7,7%) ga o'sgani kuzatildi. Aholi jon boshiga: yalpi ichki mahsulot hajmi har bir kishi uchun taxminan 3093 dollarga yetdi.[4]

Diversifikatsiya - lotincha diversificatio - o'zgarish, xilma-xil taraqqiyot ma'noni anglatadi. Diversifikatsiya - korxonalarning faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi hisoblanadi. Diversifikatsiya ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi.[5]

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 26.12.2025-yildagi Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi bo'lib o'tdi.

Bu murojaatnomada " Avvalo jahon miqyosida ishlab chiqarish va transport - logistika zanjirlari uzilgan, xomashyo va moliyaviy resurslar narxi oshgan sharoitda ham mamlakatimiz iqtisodiyoti ishonchli va barqaror o'sishda davom etayotganini qayd etish mumkin" . Bu natijalar dunyo hamjamiyati va nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Bundan 9 yil oldin iqtisodiyot hajmi 100 mlrd dollar bo'lsa 2025 - yil yalpi ichki mahsulot hajmi 145 mlrd dollardan oshdi. Eksport hajmini 23% ga oshirib, 33,4 mlrd dollarga yetdi. Oltin - valyuta zaxiralarimiz ilk bor 60 mlrd dollardan oshdi. Investitsiyalar hajmi 43,1 mlrd dollarga yetdi. Jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi hajmi ulushi 31,9% ni tashkil etmoqda. Yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz suveren reytingini „BB—“ dan „BB“ pog'onaga ko'tarildi. Chetdan jalb qilinadigan resurslarning foiz stavkasi 1-1,5 punktga pasayib, tashqi qarz xarajatlari yiliga kamida 300 mlrd dollarga kamaydi.[6]

Bu yil 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib bordi, yana 2 mln 300 mingga yaqin aholining suv ta'minoti yaxshilandi, hamda 867 ta „og'ir“ mahalladagi 470 mingta xonadonga tomorqalarni sug'orish uchun ilk bor suv yetib keldi. Joriy yilda aholiga 8 mln 100 ming kvadrat metrli, 132 ming xonadondan iborat ko'p qavatli uylar topshirilmoqda. Odamlarning o'zi ham yashash sharoitlarini yaxshilash uchun 19 mln kvadrat metr maydonda qurilish qildi. Biznes vakillari tomonidan 24 mln kvadrat metr noturar - joy obyektlari barpo etildi.[7]

Joriy yilda 5 mln aholining daromadi bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 % dan 4,9 % ga tushdi, qariyb 1,5 mln ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla kambag'allikdan xoli hududga aylandi. Kambag'al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat bog'chalariga imtiyozli asosda qabul qilindi. Bu yildan boshlab 208 ta bog'chada birinchi marta inklyuziv ta'lim joriy etildi. Yurtimizda kambag'allik darajasi yil boshidagi 8,9% dan 5,8% ga tushdi, 8,5 mlndan ziyod odam iqtisodiy jihatdan kambag'allikdan chiqdi, ishsizlik 2 barobar kamaydi.[8]

O'zbekiston -2030 strategiyasi mazmun mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2023- yil 11-sentyabrdagi PF - 158 - son farmoniga muvofiq „ O'zbekiston -2030“ strategiyasi tasdiqlandi.[9] Mazkur hujjat kelgusi 7 yilda O'zbekistonning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim yo'nalish hisoblanib 5 ta ustuvor yo'nalish darajada 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan. Uning maqsadlari va samaradorlik ko'rsatkichlari aholi tomonidan oson qabul qilinib, tushunish uchun qulay shaklda bayon etilgan.[10]

Taklif va tavsiyalar.

- * Birinchi navbatda iqtisodiyotimizdagi bu yutuqlarni kelgusi yilda yanada ko'paytirish.
- * Hozirgi erishilayotgan yutuqlarga munosib ravishda ta'lim olishimiz.
- * Jahon bozorida mustahkam o'rin egallashimiz.
- * Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun turizmga katta etibor qaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. James Paul. Urban sustainability in Theory and practice. Journal of post Keynesian Economics.
2. <http://uz.Wikipedia.org>
3. O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi(stat. uz).

4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.
5. [http:// Aloqa bank.uz](http://Aloqa.bank.uz)
6. Prezident.uz
7. O'zbekiston Milliy axborot agentligi
8. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayti.
9. <http://leks.uz>.
10. [http://strategy .uz](http://strategy.uz)